



UDK: 81`373.611

E'zoza ARZIMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: kizgaldakkizz@gmail.com

DSc, dotsent G.Nasrullayeva taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MOBIL ALOQA TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

Annotatsiya

Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning tarmoq terminologiyasi, qiyosiy leksikografiya va tarjimaviy semantika kabi yo'nalishlari kesishgan nuqtasida olib borilib, ingliz va o'zbek tillaridagi mobil aloqa sohasi terminlarining struktur-semantik xususiyatlari, tarjimaviy adekvatligi, stilistik darajasi va leksikografik ifodalanish modellari tizimli tahlilga tortilgan. Leksikografik resurslarda (lug'atlar, onlayn platformalar, atamalar bazasi) ushbu terminlarning berilish shakllari, tarjima usullari, semantik ekvivalentlik darajasi va strukturaviy o'xshashliklari o'rganiladi. Tadqiqot natijasida inglizcha mobil aloqa terminlarining o'zbek tilida ifodalanishida mavjud bo'shliqlar, sinonimiya, va standartlashtirish muammolari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Mobil aloqa terminologiyasi, inglizcha va o'zbekcha tarmoq terminlari, struktur-semantik tahlil, tarjimaviy adekvatlik, terminologik tizim va tasnif, zamonaviy terminshunoslik konsepsiyalari, sohaaro til birliklari, leksikografik modellashirish, ekvivalentlik va sinonimiya muammolari, funksional-stilistik xususiyatlar.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕРМИНОВ МОБИЛЬНОЙ СВЯЗИ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Данная статья была проведена на стыке таких направлений современной лингвистики, как сетевая терминология, сравнительная лексикография и переводческая семантика, где были проанализированы структурно-семантические особенности, переводческая адекватность, стилистический уровень и модели лексикографического выражения терминов мобильной связи на английском и узбекском языках. В лексикографических ресурсах (словари, онлайн-платформы, базы данных терминов) исследуются формы передачи, методы перевода, степень семантической эквивалентности и структурные сходства этих терминов. В результате исследования выявлены существующие пробелы в узбекском выражении английских терминов мобильной связи, синонимии, и проблемы стандартизации.

Ключевые слова: Терминология мобильной связи, английские и узбекские сетевые термины, структурно-семантический анализ, переводческая адекватность, терминологическая система и классификация, современные терминологические концепции, междисциплинарные языковые единицы, лексикографическое моделирование, проблемы эквивалентности и синонимии, функционально-стилистические особенности.

LEXICOGRAPHIC STUDY OF MOBILE COMMUNICATION TERMS IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation

This article is carried out at the intersection of such directions of modern linguistics as network terminology, comparative lexicography and translational semantics, and the structural-semantic features of the terms of the mobile communication field in English and Uzbek languages. Translational adequacy, stylistic level and lexicographic expression models are subjected to systematic analysis. In lexicographic resources (Dictionaries, online platforms, a database of terms), the forms of issuance, methods of translation, the level of semantic equivalence and structural similarities of these terms are studied. As a result of the study, the existing gaps, synonyms, and standardization problems in the expression of English mobile terms in the Uzbek language are identified.

Key words: Mobile communication terminology, English and Uzbek Network terms, structural-semantic analysis, translational adequacy, terminological system and classification, modern terminology concepts, interfacial Language units, lexicographic modeling, equivalence and synonymy problems, functional-stylistic features.

Kirish. Hozirgi zamon kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, xususan mobil aloqa texnologiyalarining jadal taraqqiyoti natijasida yangi terminlarning katta oqimi yuzaga kelmoqda. Ushbu terminlar nafaqat texnologik tizimlarni, balki ijtimoiy aloqa, madaniyat va tilni ham qamrab oladi. Ayniqsa, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida ularning leksikografik ifodalanishida muhim lingvistik masalalar yuzaga chiqadi. Maqolaning asosiy maqsadi – ingliz tilidagi mobil aloqa terminlarining o'zbek tilida qanday leksikografik ifodalanishini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish. Mobil aloqa terminlarining lug'atlardagi aksini tahlil qilish, tarjima va ekvivalentlik masalalarini aniqlash, terminlarni tasniflash va strukturaviy jihatdan tahlil qilish maqolaning vazifasi

hisoblanadi. Tadqiqot mobil aloqa terminologiyasini leksikografik nuqtai nazardan kompleks o'rganishga qaratilgan bo'lib, ilgari yetarlicha o'rganilmagan terminlar qatlamini qamrab oladi. Ishning nazariy asosini zamonaviy terminshunoslik konsepsiyalari, struktur lingvistika, pragmatolingvistika va kognitiv semantika yondashuvlari tashkil etadi. Tadqiqotda mobil aloqa terminlarining inglizcha va o'zbekcha variantlari orasidagi ekvivalentlik darajasi, semantik torayish va kengayish, morfologik shakllanishi, uslubiy belgilanishi va konnotativ yuklamasi aniqlanadi. Tahlil obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillarida yaratilgan ixtisoslashgan ikki tilli lug'atlar, mobil operatorlar interfeysi matnlari, texnik reglamentlar, xizmat tariflari, reklama diskursi, shuningdek, korpus lingvistikasi vositalarida

fiksatsiyalangan autentik materiallar tanlab olingan. Tadqiqot natijasida mobil aloqa terminlarining ikki tilda leksikografik reprezentatsiyasiga xos bo'lgan differensial va integral xususiyatlar, tarjimaviy nomuvofiqliklar, stilistik sharoitlardagi moslashuvlar, va pragmatik funksiyalar aniqlanib, ularni tasniflash va modellashtirish bo'yicha metodologik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa terminlarining leksikografik ifodalanishini o'rganish uchun kompleks metodlar uyg'unligi asosida quyidagi asosiy yondashuvlar qo'llanildi. Tahlil uchun ko'plab mobil aloqa terminlari tanlab olindi. Manbalar sifatida quyidagilar xizmat qildi:

Ingliz tilidagi texnik va soha lug'atlari: Oxford Dictionary of Computing [1], Longman Dictionary of Contemporary English [2], Cambridge ICT Glossary [3];

O'zbek tilidagi soha lug'atlari: Inglizcha-o'zbekcha telekommunikatsiya atamaları lug'ati (2008), Texnika va aloqa sohasiga oid izohli lug'at (2020);

Tahlil jarayonida quyidagi lingvistik va leksikografik metodlar qo'llanildi:

Tarjima ekvivalentligi tahlili - ingliz tilidagi terminlarning o'zbekcha mos variantlarini aniqlash;

Leksikografik struktura tahlili - lug'atlardagi termin ifodasining tartibi, definitsiyasi, sinonimik qamrovi;

Tematik tasniflash - Terminlarni mavzular bo'yicha guruhlariga ajratish (tarmoq, qurilma, signal, xizmat, platforma).

Terminlarning tanlanishida quyidagi mezonlarga amal qilindi:

So'nggi 10 yil davomida faol ishlatilgan texnologik terminlar;

Har ikki tilda (ingliz-o'zbek) leksikografik resurslarda mavjud bo'lgan terminlar;

Yagona ekvivalentga ega bo'lmagan, tarjimada farqlanuvchi terminlar (masalan: roaming, airtime, bandwidth, handset);

Sinonimik yoki ixtisoslashgan variantlarga ega terminlar (masalan: cell phone – mobile phone – handset).

Adabiyotlar tahlili. Terminologiyani nazariy poydevorini A. Rey [4] va J. Sager [5] kabi klassiklar yaratgan. Rey terminlarning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi shakllanishini tahlil qilib, "madaniy moslik" prinsipini ilgari suradi. Bu aynan mobil aloqa terminlari tarjimasida ko'p uchraydigan madaniy tafovutlarni tushinishda asos bo'ladi. Sager esa terminlarni tizimlashtirish, ularning strukturaviy

qurilishini aniqlash va ularni lug'atlarda qanday berilishi kerakligi haqida metodologik asoslar bergan. M.T. Cabré [6] esa zamonaviy terminografiyaning asoschisi sifatida terminlarning ko'p qatlamli tahlilini (morfologik, semantik, funksional) taqdim etgan. Cabré qarashlari ushbu maqolada morfemik tahlil va tarjima strategiyalarini aniqlashda qo'llanilgan. Tarjimaviy yondashuvlarda M. Baker [7] asari asosiy nazariy manba sifatida tahlil qilindi. U tarjimada ekvivalentlik, madaniy tafovut va semantik siljish muammolarini sinchiklab o'rgangan. Bu ayniqsa, roaming, airtime, coverage kabi tushunchalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda dolzarb bo'lmoqda.

O'zbek tilidagi amaliy izlanishlardan D. Saidqodirova [8] texnik matnlar tarjimasida terminlar ekvivalentligi bilan bog'liq muammolarni ko'rsatgan. U ayrim terminlarning sinonimlar orqali nomuvofiq tarjima qilinayotganini tanqid qiladi. Ushbu maqola aynan ushbu muammoni kengaytiradi va statistik asos bilan dalillaydi.

D. Kadirbekova [9] o'zbek tilidagi axborot-kommunikatsiya terminlarini morfologik va semantik jihatdan o'rganib, ular tarjimasida sustlik, noto'g'ri o'zlashtirish holatlarini ochiqlaydi. U o'zbek tilidagi terminlar tizimining milliy korpus asosida shakllanishi lozimligini ta'kidlaydi.

M. Mirzayeva [10] tomonidan tuzilgan Inglizcha-o'zbekcha telekommunikatsiya atamaları lug'ati — ushbu maqola uchun asosiy leksikografik manba bo'lib xizmat qildi. Ammo u yerda ba'zi terminlar uchun bir necha sinonim shakllari taklif qilingani — ushbu maqolada tilga olingan "standartlashtirish muammosi"ning bir ko'rinishi hisoblanadi.

P. Nation [11] o'z asarida korpus asosida lug'at shakllantirish metodikasini va real ishlatish chastotasining ahamiyatini chuqur yoritadi. Bu ayniqsa tarjimada chalkash terminlar (masalan, drop call, signal strength) ni aniqlashda foyda berdi. O'zbekistondagi til.gov.uz [12] va glossary.uz [13] elektron platformalar bugungi kunda terminlarni normativ berish jarayonida muhim manba hisoblanadi. Biroq, bu resurslarda mobil aloqa terminlarining to'liq va zamonaviy variantlari har doim mavjud emas, bu esa ushbu maqolaning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Natijalar va muhokama. Ushbu bo'limda ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa terminlarining leksikografik ifodalanishiga oid tarjima strategiyalari, morfemik qurilmalari va leksikografik yondashuvlarning asosiy natijalari keltiriladi. Inglizcha ko'plab mobil aloqa terminlarining o'zbekcha leksikografik ekvivalentlari aniqlanganda quyidagi tasnifga ega bo'ldi:

№	Tarjima strategiyasi	Misolalar	Foiz (%)
1	To'g'ridan-to'g'ri tarjima (kalka)	Mobile network – mobil tarmoq	27%
2	Terminni o'zlashtirish	Roaming – rouming	33%
3	Mos tushuvchi o'zbekcha atama bilan almashtirish	Cell phone – uyali telefon	21%
4	Tavsiflovchi tarjima	Airtime – efir vaqti	12%
5	Leksik tafovutli (umuman mos kelmaydigan)	SIM tool kit – (qisman)	7%

Bu ko'rsatkichlar inglizcha terminlar o'zbek tiliga ko'proq fonetik/adaptiv o'zlashtirish asosida kiritilayotganini ko'rsatadi. Bu esa standartlashtirish va umumiy tushunish muammolariga olib kelmoqda. Ingliz terminlari odatda ikki yoki undan ortiq asos so'z va affiksalar orqali yaratiladi. O'zbek tilidagi tarjimalarda esa morfologik tahlil davomida semantik yondashuv ustun turadi, bu esa strukturaviy tafovutni keltirib chiqaradi.

Eng ko'p uchraydigan top 10 ta termin jadvali:

№	Inglizcha termin	O'zbekcha ekvivalent	Leksik statusi
1	Roaming	Rouming	O'zlashtirilgan
2	SIM card	SIM karta	O'zlashtirilgan
3	Mobile data	Mobil ma'lumot	Kalka
4	Signal strength	Sifat kuchi / Signal kuchi	Ikki variantli tarjima
5	Call drop	Qo'ng'iroq uzilishi	Tavsifiy
6	Handset	Telefon qurilmasi	Tavsifiy
7	Base station	Bazaviy stansiya	Kalka
8	Prepaid service	Oldindan to'lovli xizmat	Kalka
9	Airtime	Efir vaqti	Tavsifiy

10	Coverage	Qamrov	Leksik adaptatsiya
----	----------	--------	--------------------

Natijalar inglizcha mobil terminlarining aksariyat hollarda o'zlashtirish orqali tarjima qilinayotganini, ba'zilar esa kalka yoki tavsifiy yo'l bilan ifodalanayotganini ko'rsatdi. Morfemik tahlil esa o'zbek tilida ko'proq so'z yasovchi affiksalar orqali yangi terminlar ishlab chiqilayotganini ko'rsatadi. Olingan natijalardan ko'rinadiki, ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa terminologiyasi leksikografik jihatdan sezilarli farqlarga ega. Ingliz tilida terminlar odatda qisqa, kompakt, morfologik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri, ko'p hollarda ikki asosiy morfemadan tashkil topgan: cell+phone, band+width, smart+phone. Bunday holat Sager (1990) tomonidan ilgari surilgan "kompakt termin yaratish" tamoyiliga mos keladi[5].

O'zbek tilida esa terminlar:

yoki to'g'ridan-to'g'ri tarjima (kalka) orqali (masalan: mobile data → mobil ma'lumot),

yoki tavsiflovchi yondashuv bilan ifodalanadi (masalan: airtime → efir vaqti),

yoki fonetik o'zlashtirish asosida (roaming → rouming) lug'atlarga kiritiladi.

Bu farqlar o'zbek tilining agglutinatib tabiatidan kelib chiqadi. Bu esa terminologik standartlashtirishda muvofiqlik va aniqlik yetishmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Terminografik tahlil shuni ko'rsatdiki:

Aksar hollarda leksikografik resurslarda bir xil termin bir necha shaklda keltiriladi. Masalan, bandwidth termini bir joyda signal uzatish kengligi, boshqa joyda esa tarmoq o'tkazuvchanligi sifatida tarjima qilingan.

Bu standartlashtirish yo'qligi, sohada bir ma'noli tushuncha shakllanmaganligini bildiradi.

Coverage area termini ba'zida qamrov zonasi, ba'zida esa aloqa hududi sifatida ifodalanagan.

Saidqodirova [8] tomonidan ta'kidlanganidek, o'zbek tilida texnik terminlar ko'pincha tarjimaga emas, balki o'zlashtirishga suyanmoqda. Bu esa o'quvchilar va foydalanuvchilarda terminni noto'g'ri talqin qilish xavfini oshiradi.

Tarjima jarayonida yuzaga kelgan muhim muammolardan biri – semantik nomutanosiblik. Masalan:

Prepaid plan – oldindan to'lovli xizmat tarjimasi semantik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, o'zbek madaniy muhitida u hali keng ommalashmagan.

Handset – telefon qurilmasi sifatida tarjima qilinsa-da, bu atama texnologik va foydalanuvchi maqsadlari nuqtai nazaridan mobil telefon bilan to'liq teng emas.

Xulosa. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa terminologiyasining leksikografik ifodalanishi tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Ilmiy xulosalar:

Terminlarning tarjima strategiyalarida nomuvofiqlik mavjud: ingliz tilidagi terminlar o'zbek tilida bir necha variantda, ba'zida fonetik o'zlashtirish, ba'zida esa kalka yoki tavsifiy tarjima orqali aks etmoqda. Bu esa yagona terminologik yondashuv yo'qligini ko'rsatadi.

O'zbekcha leksikografik resurslarda mobil aloqa terminlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayrim lug'atlarda bir xil termin turli shaklda tarjima qilingan, bu esa foydalanuvchida chalkashlik keltirib chiqaradi.

Amaliy takliflar:

Leksikografik resurslarni takomillashtirish:

Har bir termin uchun yagona, normativ o'zbekcha variant ishlab chiqilishi lozim;

Terminlar tematik guruhlar asosida (qurilma, xizmat, tarmoq, signal) tasniflanishi maqsadga muvofiq.

Tarjimaviy yondashuvlarni standartlashtirish:

Har bir tarjima strategiyasi (kalka, fonetik, adaptatsiya) asosida qat'iy usul ishlab chiqilishi kerak;

Bitta termin uchun bir nechta sinonimik variantlarni emas, yagona uslubiy va semantik mos tarjimoni tanlash zarur.

Kognitiv va madaniy yondashuvni chuqurlashtirish:

Har bir termin madaniy kontekstda qanday qabul qilinishini ham inobatga olish kerak (masalan, prepaid plan kabi tushunchalar hali ommalashmagan).

ADABIYOTLAR

1. Oxford Dictionary of Computing. 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 640 p.
2. Longman Dictionary of Contemporary English. 6th ed. – London: Pearson Education, 2020. – 2304 p.
3. Cambridge ICT Glossary [Elektron resurs]. – <https://www.cambridge.org/elt/ict/glossary>
4. Rey A. Essai de terminologie générale. – Paris: Presses Universitaires de France, 1995. – 275 p.
5. Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins, 1990. – 248 p.
6. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – 256 p.
7. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. – 328 p.
8. Saidqodirova D. Texnik matnlar tarjimasida terminologik ekvivalentlik muammolari // Filologiya masalalari. – 2021. – №2. – B. 45–52.
9. Kadirbekova D. O'zbek tilida axborot-kommunikatsiya terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018. – 204 b.
10. Mirzayeva M. Inglizcha-o'zbekcha telekommunikatsiya atamaları lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 312 b.
11. Nation, P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 384 b.
12. Til.gov.uz: O'zbek tili lug'at portali [Elektron resurs]. – <https://til.gov.uz>
13. Glossary.uz: Elektron terminlar bazasi [Elektron resurs]. – <https://glossary.uz>